



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI

TO'PLAMI
2-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
2-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 368-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezlariining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

oshirish, o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni zamonaviy jamiyatga tayyorlash mumkin. O'qituvchilar va psixologlarning hamkorligi esa bu jarayonda muhim o'rin tutadi.

Pedagogik psixologiya shaxs rivojlanishining psixologik mexanizmlarini o'rganish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ta'lim va tarbiyaning ilmiy asoslangan psixologik yondashuvini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq qilish orqali shaxsning har tomonlama va barkamol shakllanishiga erishish mumkin.

Zamonaviy pedagogik psixologiya o'quvchilarning tafakkurini, mustaqil bilim olish ko'nikmalarini va shaxsiy qadr-qimmatini rivojlantirishga alohida urg'u beradi. Ta'lim va tarbiya jarayonida psixologik bilimlardan samarali foydalanish — shaxsni jamiyatda muvaffaqiyatli moslashuvga tayyorlashning muhim shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Toxtaxodjayeve (tahriri ostida). Pedagogika. T.: O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2001.
3. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. T.: O'qituvchi, 1996.
4. Hoshimov K., Ochil S. O'zbek pedagogikasi antologiyasi, I-jild. T.: O'qituvchi, 2010.
5. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. T.: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2008.
6. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug'at. T., 2008.
7. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
8. Mavlonova R. va boshqalar. Ijtimoiy pedagogika. T.: Istiqlol, 2009.
9. Karimova V.M. Psixologiya. T.: Sharq, 2002.
10. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya 1-2 tom. Toshkent, 2002.
11. Ivanov P.I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008.
12. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. T.: Fan va texnologiyalar, 2010.

INGLIZ TILI MASHG'ULOTLARIDA MOBIL ILOVALARNI QO'LLASHNING XALQARO VA MILLIY TAJRIBALARI

Mustafoyev Behzod Farxodovich

Jizzax politexnika instituti
dilshodkulmuradov@gmail.com

Kirish. Globalizatsiya va raqamli texnologiyalar davrida chet tillarni, xususan ingliz tilini o'qitishda innovatsion yondashuvlar muhim o'rin tutmoqda. Mobil ilovalar

til o'rganish jarayonini soddalashtirish, samaradorligini oshirish va mustaqil ta'limni rivojlantirishda keng qo'llanilmoqda.

Mobil texnologiyalar orqali ingliz tilini o'qitish jarayonida bir qator afzalliklar kuzatilmoqda. Birinchidan, mobil ilovalar o'quvchilarga **individuallashtirilgan ta'lim** imkonini beradi. Har bir foydalanuvchi o'z qiziqishi, bilim darajasi va ehtiyojidan kelib chiqqan holda darslarni tanlashi, mashqlarni o'z sur'atida bajarishi mumkin. Ikkinchidan, mobil ilovalarda qo'llaniladigan **gamifikatsiya usullari** – reyting tizimi, ball to'plash, mukofotlar berish – o'quvchilarda motivatsiyani kuchaytiradi. Uchinchidan, mobil texnologiyalar orqali **uzluksiz ta'lim** amalga oshadi: o'quvchilar vaqt va makondan qat'i nazar, mashg'ulotlarni davom ettirishi mumkin.

Biroq, mobil ilovalarni qo'llashda ayrim muammolar ham mavjud. Masalan, internet tezligi yoki qamrovining pastligi, ayrim ilovalarni sotib olishdagi moliyaviy cheklovlar, shuningdek, o'quvchilarning faqat ilovalarga qaram bo'lib qolishi kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Bundan tashqari, ayrim o'qituvchilarning texnologiyadan foydalanish bo'yicha malakasi yetarli emasligi jarayon samaradorligiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Shunday bo'lsa-da, xalqaro va milliy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mobil ilovalarning imkoniyatlari ularning mavjud muammolaridan ancha ustundir. Agar bu jarayon ta'lim muassasalari, ota-onalar va pedagoglar hamkorligida to'g'ri yo'lga qo'yilsa, ingliz tilini o'qitishda mobil texnologiyalar kelajakda yanada keng ko'lamda qo'llanilishi kutilmoqda.

Xalqaro tajribalar. Ingliz tilini o'qitishda xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, mobil ilovalar yordamida o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish, talaffuzni to'g'rilash, grammatik bilimlarni mustahkamlash samarali amalga oshirilmoqda. Masalan, Duolingo, Memrise, Babbel, Rosetta Stone kabi xalqaro mobil ilovalar foydalanuvchilarga interaktiv mashqlar, gamifikatsiya elementlari va sun'iy intellekt asosidagi tahliliy vositalarni taqdim etadi.

Bundan tashqari, Coursera va EdX platformalarida ingliz tili kurslari mobil versiyalarda ham taqdim etilib, talabalar o'zlariga qulay bo'lgan vaqtda tilni o'rganish imkoniga ega bo'ladilar.

Milliy tajribalar. O'zbekistonda ham ingliz tili mashg'ulotlarida mobil ilovalardan foydalanish bo'yicha ijobiy tajribalar to'planmoqda. Xususan, MyEnglishLab, EnglishUz va Ingliz tili uchun maxsus ishlab chiqilgan mobil qo'llanmalar o'quvchilarning darsdan tashqari mashg'ulotlarini qo'llab-quvvatlamoda.

Shuningdek, Ta'lim vazirligi hamkorligida yaratilgan «Bilimlar olami» va «EduMarket» platformalari orqali ingliz tilini interaktiv tarzda o'rganish imkoniyati kengaymoqda. Mobil texnologiyalar yordamida talabalar so'z yodlash, tinglab tushunish, test topshiriqlari bajarish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishmoqda.

Xulosa. Xalqaro va milliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, ingliz tili mashg'ulotlarida mobil ilovalarni qo'llash talabalar til o'rganish motivatsiyasini kuchaytiradi, o'zlashtirish samaradorligini oshiradi hamda mustaqil ta'limni rivojlantiradi. Kelgusida mobil ilovalardan foydalanish metodikasini yanada takomillashtirish orqali ingliz tilini o'qitish jarayonida yuqori natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Burstson, J. (2015). *Twenty years of MALL project implementation: A meta-analysis of learning outcomes*. ReCALL, 27(1), 4–20.
2. Stockwell, G. (2010). *Using mobile phones for vocabulary activities: Examining the effect of the platform*. Language Learning & Technology, 14(2), 95–110.
3. Godwin-Jones, R. (2017). *Emerging technologies: Smartphones and language learning*. Language Learning & Technology, 21(2), 3–17.
4. Chapelle, C. A., & Sauro, S. (2017). *The Handbook of Technology and Second Language Teaching and Learning*. Wiley-Blackwell.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi. (2022). *Ingliz tilini o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha uslubiy qo‘llanma*. Toshkent.
6. Karimov, A. (2021). *Mobil texnologiyalar yordamida chet tillarini o‘qitish metodikasi*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
7. Ministry of Public Education of Uzbekistan. (2020). *State program on improving foreign language teaching in general secondary schools*. Tashkent.
8. HS Daniyarovna, KD Istamovich, U Ilhom. The Contents of Students’ Independent Education and Methods of Implementation. Psychology and Education Journal 58 (2), 1445-1456

XITOIDA VA G‘ARBDA TABIIY GENEZISINING MOHIYATI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI

Abduvohidova Laziza Farhod qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Xitoy falsafasi dunyo va inson haqida o‘ziga xos tushunchalar yaratgan. Xitoy falsafiy tafakkurining ibtidosi ham, xuddi keyinchalik Qadimgi Yunonistonda bo‘lgani kabi asotir tafakkurga borib taqaladi. Ushbu maqolada sharq falsafasida Xitoy falsafasining ahamiyati, dolzarbligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: falsafa, inyan falsafasi, genesis, xitoy falsafasi, g‘arb falsafasi, buyuk hudud, o‘zgarishlar kitobi.

Xitoy afsonaviy fikrida ham osmon, er va tabiatdagi barcha narsalar ilohiylashtiriladi. Ilohiylashtirilgan muhitdan eng oliy qoida keltirib chiqariladiki, u dunyoni boshqarib, ashyolarga mavjudlik baxsh etadi. Ushbu qoidaga gohida shaxsiyat bag‘ishlanib, eng oliy hukmdor (shan-di) sifatida tushunilsa ham, ko‘pincha “osmon” (tyan) so‘zi bilan ifodalanadi.

Butun tabiat jonlantirilgan – har bir narsa, joy va hodisa o‘z devlariga ega. O‘lgan ajdodlar ruhini hurmatlash keyinchalik ularga sig‘inishni keltirib chiqarib, Qadimgi Xitoyning muhofazakorona tafakkur yuritishiga olib kelgan. Ruhlar insonga uning kelajagini bashorat qilishi, uning xulqi va faoliyatiga ta’sir qilishi mumkin, deb tushunilgan. Qadimgi afsonalarning ildizlari eramizdan oldingi II minginchi yillar